
Rishton tumani va Turkiyaning "Lodos" tekstil fabrikasi o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi

Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev boshchiligidagi rasmiylar va tadbirkorlardan iborat tuman delegatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik aloqalari o'rnatish maqsadida bugun Turkiyaning Bursa viloyatidagi tashrifi davom etmoqda.

Delegatsiya a'zolari bugun Bursa viloyatidagi eng nufuzli kompaniyalaridan biri "Lodos" tekstil fabrikasi rahbariyati bilan uchrashuv o'tkazishdi.

Uchrashuv davomida Delegatsiyamiz vakillari Rishton tumani to'qmachilik salohiyati, Respublikamiz bozorida tutgan o'rni haqida, shuningdek, xorijiy investorlarga hukumatimiz tomonidan berilgan imtiyozlar va qulayliklar borasida ma'lumot berishdi.

Quvonarlisi shuki delegatsiya a'zosi Rishton tumanida faoliyat olib borayotgan turkiyalik tadbirkor Sen Erol mamlakatimizda investorlarga berilgayotgan imtiyozlar haqida gapirib, o'z taqdimotini o'tkazdi.

Mazkur Lodos fabrikasi tomonidan ishlab chikarilayotgan matolar Breshka, Mango va Zara kabi jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan kompaniyalarga yetkazib beriladi.

Lodos tekstil fabrikasi vakillaridan tashkil topgan delegatsiya sentyabr oyida Rishton tumaniga tashrif buyurishi kelishib olindi.

Rishton tumanidagi "Fayz Agro teks" fabrikasida "Lodos" tekstil fabrikasi delegatsiyasi bilan uchrashuv tashkil etiladi.

2022-06-25 23:36:34